O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
XODIMLAR BO'LIMI

# МАЪНАВИЯТ, ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ, ДУНЁҚАРАШ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI

Ijtimoiy fanlar kafedrasi

# *MA`NAVIYAT, TA`LIM-TARBIYA, DUNYOQARASH*

**"Ilmiy ijod" markazi iqtidorli talabalarining an'anaviy IV ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari**

Jizzax
"Sangzor" nashriyoti
2014

abadiy kurash va unda har bir inson ezgulik tomonida turib kurashishi lozimligi haqidagi g'oyalar Nitsshening "a'lo odam", "hukmronlik irodasi" mustahkam inson g'oyalariga batamom mos edi. SHuning uchun u zardushtiylik payg'ambari Zardusht timsolida irodasi mustahkam, qandaydir tashqi qoidalar bilan emas, balki o'z qalbiga quloq soluvchi, kurashuvchi "zabarmard inson"ni ko'radi. Nitsshe shunday deydi: xudo bizni shunchaki ko'rsatmalar bo'yicha tobe' bo'lib hayot kechirishimiz uchun yaratmagan. U insonni o'ziday yaratuvchi, kuchli, o'z irodasini namoyon qilishi uchun yaratgan.

Nitsshe har bir inson qalbida ilohiyot zarrasi bor deydi. Biz axloqni tushuncha sifatida emas, his-tuyg'ular asosida qabul qilishimiz kerak. Biz qalb amri bo'yicha yashashimiz kerak. Axloq miyada emas, balki, qalbda bo'lishi kerak, deydi F. Nitsshe. Insonlarning qalbi ifloslanib, bekilib qolgan. Lekin barcha iflos oqimlar musaffo okeanga borib quyiladi. Bu okean xudodir. Bu okean tubida inson o'ziga panoh topadi. Har bir inson axloqiy dunyosining ichida o'zini erkin his qilib, qaltis qadamlardan o'zini tiyishi, komillikka intilishi kerak.

Nitsshening xristianlikka qarshi pozitsiyadagi qarashlari keskin ruhda bo'ldi. Shu bois uning bu boradagi fikrlari ko'pchilik faylasuflar va olimlar tomonidan keskin tanqid qilindi. Shunday bo'lsada, uning ta'limoti keyingi davrlarda yuzaga kelgan ko'plab falsafiy oqimlarning yuzaga kelishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. U insonning iroda erkinligi uchun, o'z hatti-harakatlarini diniy dogmalardan holi amalga oshiradigan inson uchun keskin kurash olib bordi. Uning keskinlik ruhidagi, "qog'ozga o'ralmagan" fikrlari keyingi faylasuflarning o'z fikrlarini bayon etish uslubiga katta ta'sir ko'rsatdi. Xususan, Erix Fromm nitsshecha uslubda shunday yozgan edi: "Agar Nitsshe: "XIX asrda Xudo o'ldi" degan bo'lsa, men aytaman: "XX asrda inson o'ldi".

Nitsshening diniy g'oyalarning dogmaga aylanishi hamda inson hayotini qandaydir mazmunsiz qoidalar bilan o'rab-chirmab tashlab uning erkidan mosuvo qilishi borasidagi fikrlari, nafaqat, G'arb olamidagi muammolarga, balki hozirgi islom olamidagi ayrim diniy mutaassiblik, aqidaparastlik bilan bog'liq muammolarga, aytish mumkinki, bevosita taalluqlidir.

Shu o'rinda angliyalik olim J. T. Uinterning "XXI asrda Islom: Postmodern dunyoda qiblani topish" asarida keltirilgan quyidagi fikriga e'tibor qaratamiz: "Saudiya Arabistonida ko'pchilik odamlar, - deb yozadi T. Uinter, - Allohdan emas, diniy politsiyadan qo'rqqani uchun namoz o'qiydi. Ular shu tariqa dindorlarning niyatlariga putur yetkazadi va (odamlarni) butparastlikning bir ko'rinishiga yetaklaydi. Qizig'i shundaki, majburlovchi teokratiyaning dinni



tiqishtirishi uni inqirozga olib borishi muqarrar[1]. Bu fikrlar Nitsshening diniy shaklbozlikning salbiy jihatlari borasidagi qarashlari naqadar haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi.

## YOSHLARNI IJTIMOIY FAOL VA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA IQTIDORLI TALABALAR YOZGI MAKTABINING O'RNI

***Tabiatshunoslik fakul'teti Biologiya yo'nalishi talabalari B. Mirzaev, U. Usanov***

Yoshlarning har tomonlama uyg'un kamol toptirish, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharotlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan isloxotlarning asosiy maqsad va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Shunday ekan bugungi o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim maskanlari oldida ta'lim oluvchilarga faqat fanni egallovchi sifatida emas, balki har tomonlama kamol topgan, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy – siyosiy, huquqiy, psixologik va boshqa sharoitlarni yaratish, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Yuqordagilarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 31 dekabr 516-son buyrug'iga asosan "Oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi inovatsion korporativ hamkorlikni yo'lga qo'yish" ning namunaviy tarkibiga ko'ra Jizzax davlat pedagogika instituti "Umumiy biologiya va uni o'qitish uslubiyati" kafedrasida ixtisosligiga mos tashkilotlar va zamonaviy korxonalar bilan inovatsion korporativ guruh tuzildi. SHuningdek, kafedra tashabbusi bilan "Biologiyaning dolzarb muammolari" mavzusida "Iqtidorli talabalar va ustozlar yozgi maktab seminari" tashkil etildi. Ushbu maktab seminar o'z oldiga quyidagilarni maqsad qilib olgan:

- Yozgi maktab Oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish aloqadorligi yo'lida inovatsion hamkorlikdagi tashkilotlar o'rtasida ilmiy, amaliy, uslubiy, axborot

[1] Qarang: Timoti J. Uinter. XXI asrda Islom: Postmodern dunyoda qiblani topish. –B. 157. http.//www.ziyouz.com

komunikatsiya va moddiy texnik resurslardan o'zaro manfaatli hamda samarali foydalanishni yo'lga qo'yishga asos bo'ladi.

- Yozgi maktab Oliy ta'lim, fan va amaliyotning inovatsion integratsiyasini jonlantirish, ularning natijalarini aprobatsiya qilish, ekspertizadan o'tkazish va natijada real amaliyotga tadbiq etishga erishishni xamda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, o'quv rejalari va amaliyot dasturlarini mos holda muntazam yangilab borishni belgilab berishga ko'maklashadi.
- Yozgi maktabning o'zaro manfaatli tomoni shundaki, u bir tomondan oliy ta'limning mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqot olib borish salohiyatini real amaliyotga yo'naltirsa, ikkinchi tomondan soha korxonalari axborot kommunikatsiya va moddiy texnika resurslari sifati va samarasini oshirishga hamda moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muhitlarni yaxshilashga va jonlantirishga yordam beradi.

2011 yildan buyon faoliyat yuritayotgan iqtidorli talabalarning yozgi maktab seminari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- Yozgi maktab kafedra qoshidagi inovatsion korporativ hamkor tashkilot va kafedra o'rtasida o'rnatilgan shartnomaviy aloqalarni o'rnatish bilan birga o'quv yili davomida bu borada olib borilgan ishlarning o'ziga xos hisobot beruvchi va kelgusi oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish aloqadorligida amalga oshiriladigan vazifalarni belgilovchi dastur ishglab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

-Inovatsion hamkor tashkilotning o'z echimini kutayotgan ilmiy texnologik muammolarni o'rganish va ularni hal etish choralarini ko'rish, ya'ni,

- Respublikamizning etuk olimlarini, Oliy ta'lim muassasasi professor o'qituvchilari va stajyor tadqiqotchi izlanuvchilar, katta ilmiy xodim izlanuvchi, iqtidorli talabalar, magistrantlar intelaktual salohiyatini viloyatdagi mavjud ishlab chiqarish muammolariga jalb etish;

- Respublikamizning etuk olimlarini,. Oliy ta'lim muassasasi professor o'qituvchilari ilmiy tadqiqot faoliyati natijasida yaratil(ayot)gan ishlanmalarini ishlab chiqarishga joriy etish;

- iqtidorli talabalar o'quv amaliyotini tashkillashtirish hamda kafedra professor o'qituvchilarining ilmiy va amaliy sohadagi malakasini oshirish;

- viloyatda yozgi maktab-seminar tashkil etilgan tumandagi barcha maktab, akademik litsey va kasb hunar kollejlari biologiya fani o'qituvchilariga yozgi maktab-seminar tereningi kunlari dovomida "Biologiyaning eng so'nggi yutuqlari va mavjud muammolar" mavzusida seminar treninglar o'tkazish;

-Iqtidorli talabalarning kelgusidagi rejalarini reallashtirish, ularning ish bilan ta'minlanishlari va ilmiy faoliyatlarini davom ettirishlari uchun o'ziga xos tanlov imkoniyatlarini yaratish.



-Iqtidori talabalarning kelgusidagi ilmiy mavzulari va ilmiy rahbarlarining belgilanishiga asos yaratish.

Yozgi maktab kafedra qoshidagi inovatsion korporativ guruh doirasidagi bajarilgan ishlarni va ijobiy natijalarni tahlil qilar ekan, undagi mavjud muammolarni hal etishda Respublika va jahon miqiyosidagi fan yangiliklari doirasida ko'rib chiqadi, uning tezkor ravishda hal etilishi va kamchiliklarning bartaraf etilishi choralarini belgilashda tegishli xulosalar beradi.

Yozgi maktab kafedradagi inovatsion hamkor tashkilotlar talabiga muvofiq kadrlar tayyorlash va ularni ish bilan ta'minlash masalalarining ham o'zaro manfaatli tomonlarini ko'rib chiqadi. Jumladan, joylarda (asosan tashkil etilgan tumanda)gi kadrlarga bo'lgan talab, mavjud kadrlarlar sifatini ham o'rgandi va bu boradagi mavjud muammolarni hal etishda qarorlar qabul qiladi.

Yozgi maktab kafedra va inovasion hamkor tashkilotlar bilan amaliy muammolar bo'yicha shakillantirilgan investitsion loyihalar portfelini boyitish, yangilab borish va uning amaldagi faoliyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

"Biologiyaning dolzarb mummolari" mavzusida tashkil etilgan yozgi maktab seminarini tashkil qilishda kafedra qoshida faoliyat yuritayotgan innovatsion korporativ guruhi, fakultet ota onalar qo'mitasi, institut rahbariyati tomonidan homiylik qilinmoqda va maktab seminarning yuqori saviyada o'tilishi ta'minlanmoqda. ya'ni, yozgi maktabning asosiy bashqaruv bo'g'ini Jizzax davlat pedagogika instituti hisoblanib "Umumiy biologiya va uni o'qitish uslubi" kafedrasi jamoasi va kafedraning qoshidagi inovatsion korparativ guruh a'zolari (etuk professor o'qituvchilar, katta ilmiy xodim izlanuvchilar, magistrantlar, iqtidorli talabalar) xisoblanadilar.

- yozgi maktab ishtirokchilari va tashkil etiladigan joyi, vaqti kafedrada ikkinchi akademik semestr yakunidan so'ng belgilab olinadi va maxsus guruh tuzilib qatnashuvchilar haqida ma'lumotlar bazasi yaratiladi. Fakultet dekani, kafedra mudiri, inovasion korporativ hamkor tashkilotlarning a'zolari tomonidan tasdiqlanib asosiy tashkilotchilar tomonidan boyitiladi va tashkiliy ishlar (joyning tayinlanishi, moliyalashtirish, seminar terening kundaligi, unda o'qiladigan ma'ruzalar va ma'ruzachilar, taklifnoma va dasturlar tayyorlanishi) amalga oshirilib boriladi;

- yozgi maktabning yillik dasturi va ish rejasi inovatsion korporativ guruh tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra yig'ilishida ko'rib chiqilib, fakultet ilmiy kengashida tasdiqlanadi;

- yozgi maktab o'z faoliyati, natijalari va xulosalari haqida kafedra va fakultet dekaniga hisobot topshirib boradi. Kafedradagi inovsion korporativ hamkor

tashkilot va barcha ishtirokchilarga seminar trening ma'ruzalari, taqdimot va fotolavxalari va hisobot namunalari taqdim etiladi;

- yozgi maktab o'z faoliyatini keng tarzda targ'ib qiladi. Tuman, Viloyat va Respublika ommaviy axborot vositalarida yozgi maktab maqsad vazifalari, ikoniyatlari va xulosalari haqida chiqishlar qilib, keng omma fikr muloxazalari ham o'rganadi;

- yozgi maktab kafedra qoshidagi inovatsion hamkor tashkilotlar, Oliy ta'lim muassasasi, ota onalar, xomiylar va grant loyixalar tomonidan moliyalashtiriladi;

- yozgi maktabga ishtirok etuvchi iqtidorli talabalar kafedra tomonidan saralab olinadi;.

Iqtidorli talabalar yozgi maktab-seminari shu vaqtga qadar viloyatning chekka tumanlaridan hisoblangan Baxmal (2011 yilda), Zomin (2012 yilda) hamda Jizzax(2013 yilda) tumanlarida tashkil etildi va yozgi maktab seminari nizomiga muvofiq ushbu tumanlarda biologiya fanidan maktab, akademik litsey va kasb hunar kollejlarida dars berayotgan biologiya fani o'qituvchilariga maktabda o'z ma'ruzalari bilan qatnashayotgan respublikamizning etuk olimlari tomonidan ma'ruzalar qilindi va ular qiziqtirgan savol va takliflarga o'z fikr muloxazalarini bildiradilar. Ular bilan o'zaro ochiq muloqotlar olib bordilar hamda bologiya yo'nalishida ta'lim olayotgan iqtidorli talabalar bilan "Ustoz-shogird" tizimi doirasida ilmiy foliyatlarini belgilib oldilar.

Bunday maktablarning tashkil etilishi faqatgina iqtidorli talabalar va maktab biologiya o'qituvchilarini biologiya fanining so'ngi yangiliklari va fan doirasi va fanni o'qitish doirasida yangi texnologiyalarning joriy etilishi va ta'lim muassasalari biologiya fani uchun darsliklarning tahlili va ularni yanada mukammallshtirish borasidagi fikr muloxazalarni almashishdagina emas, balki viloyatda faoliyat yuritayotgan bologiya fani bilan bevosita bog'liq (innovatsion korporativ guruhi doirasidagi) ilmiy tekshirish institutlari, boshqarmalar va koxonalarining ilmiy va amaliy faoliyatlarida ham o'z aksini topmoqda. Ya'ni, korporativ guruh, oliy o'quv yurti va ishlab chiqarish korxonasi o'rtasida ilmiy loyihalar ishlab chiqilib, amaliyotga taqdim etildi. Jumladan, kafedra bilan viloyat Tabiatni muxofaza qilish qo'mitasi bilan "Jizzax viloyatinnig alohida qo'riqlanadigan hududlarining florasi", "Aydar-arnasoy ko'llar tizimida tarqalgan hayvonlarning kadastrini o'tkazish", O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashining Jizzax viloyati bo'limi bilan "Jizzax viloyatida ekoturizmni rivojlantirish orqali xorijiy mamlakatlar jamoatchiligida O'zbekistonni mustaqil demokratik davlat va munosib hamkor sifatida tasavvurga ega bo'lishiga ko'maklashish" mavzusidagi ilmiy loyihalarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.



Jizzax davlat pedagogika instituti Biologiya va uni o'qitish uslubi kafedrasi ilmiy yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ilmiy faoliyat olib borayotgan iqtidorli talabalar, mustaqil izlanuvchilar va doktorantlar tomonidan bajarilayotgan ilmiy ishlari yuzasidan ushbu yozgi maktab seminar ishtirokchilari davrasida ma'ruzalar uyushtirib, ishtirokchilarning fikr muloxazalarini o'rganoqdalar.

Biologiya yo'nalishida ta'lim olayotgan iqtidorli talabalar yozgi maktab seminarda o'z ishtiroklari davomida fan va ishlab chiqarish sohasidagi etuk olimlar va mutaxasislar bilan o'zaro muloqotda bo'ladi va ularning ma'ruzalarini tinglashlari barobarida soha vakillarining namunali hayot yo'llari, fan va ishlab chiqarishdagi fidoiyliklari haqida ham tasavvurga ega bo'ladilar. Bu esa yoshlarimizning ijtimoiy faolligini oshirishga va qalblarida Vatan tuyg'usining shakllanishiga asos bo'ladi deb hisoblaymiz.

## BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA SHARQ DIDAKTIKASINING AHAMIYATI

***O'zbek tili va adadbiyoti fakulteti***
***201-guruh talabasi O. Odilov***

Azaldan sharq xalqlarida inson aqliy va ahloqiy kamoloti masalasi muhim o'rin egallab kelgan. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bir qator asarlarda sharqqa xos bo'lgan insonning ahloqiy-ruhiy kamolotini ulug'lash yetakchi o'rin tutib, ta'lim-tarbiya masalasiga katta e'tibor berilganligini ko'rishimiz mumkin. Insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar bisotida donishmandlarning pand-nasihatlari va o'gitlari alohida o'rin egallaydi. O'gitlar, pand-nasihatlar zamirida insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari yotadi. Zaminimizda yaratilgan ta'limiy-axloqiy tarzidagi asarlar bugungi kunda ham yoshlarni hayotga amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim qo'llanma, ta'lim-tarbiyaning muhim omili bo'lib kelmoqda.

Mazkur maqolada ulug' mutafakkirlarning pand-nasihatlari barkamol avlodni tarbiyalashda ma'naviy-ahloqiy yo'riqnoma, uslubiy asos ekanligi hamda ushbu pand-nasihatlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pand-nasihat tarzida ifodalangan asarlarni quyidagi ikki turkumga ajratish mumkin:

Mualliflarning farzandlari va shogirdlariga aytgan pand-nasihatlari, ahloqiy intellektual salohiyatga yo'naltiruvchi asarlar.

Ulug' mutafakkirlarning umumiy tarzdagi pand-nasihatlari, ma'naviy-ahloqiy yo'riqnoma sifatidagi asarlari.

## MUNDARIJA:


**So'z boshi**......4
Taraqqiyot va insoniyat istiqboli......7
Yoshlar va jamiyat taraqqiyoti......8
Hamjihatlik, tinchlik - barqaror rivojlanishning muhim shartlari......10
Xalqni vatan manfaati birlashtiradi......13
Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yoshlar salohiyati......16
Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda siyosiy partiyalar va yoshlar hamkorligi......19
Men nechun sevaman O'zbekistonni?......23
Dunyo ichidagi dunyo......25
"Ommaviy madaniyat" niqobi ostida yashiringan xuruj......29
"Ommaviy madaniyat" –kelajaksiz dunyoga yo'llanma......31
"Avtobus o'rindig'idagi yozuv" yoxud globallashuv tahdidlariga qarshi milliy qadriyatlar......33
Missionerlik-milliy birlik va jamiyat barqarorligiga tahdid!......35
Ogohlik -xayotiy zarurat......37
Globallashuv jarayonlarining oilaga tasiri......39
Tushunish va shaxs o'zligini anglashining ma'naviy-ruxiy xususiyatlari......42
Tinchlik uchun harakatlar va yaxshi qo'shnichilik......43
O'zbekiston Respublikasida davlat va din munosabatlari......48
„ Ma'naviyat to'g'oni"......50
Zardushtiylik dinida komil inson muammosi......53
Milliy o'zlikni anglashga qaratilgan ta'limning ba'zi usullari......54
"Avesto"da ta'lim-tarbiya masalalari xususida ayrim mulohazalar......60
Temuriylar davri tarixini o'rganishning g'oyaviy ahamiyati......63
F. Nitsshe falsafasida dinlar tahlili va uning ahamiyati......67
Yoshlarni ijtimoiy faol va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda iqtidorli talabalar yozgi maktabining o'rni......72
Barkamol avlod tarbiyasida sharq didaktikasining ahamiyati......76
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining aqliy tafakkurini kompyuter vositasida shakllantirish......78
Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning fiziologik, psixologik rivojlanishida sportning o'rni......80
Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo'g'irchoqlar vositasida aqliy tafakkurini shakllantirish asoslari......84
Хулоса......90